

MILLIY QADRIYATLARNING ZAMON BILAN HAMNAFASLILIGI VA UYG'UNLIGI

Aziza Nazirkulova Abduvaliyevna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

“Madaniyat va san'at sohasi menejmenti” mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: S.Ikromov

“Madaniyat va san'at sohasi menejmenti” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolda milliy qadriyatlarning zamon bilan hamnafasligi va ularning uyg'unligi haqida batafsil fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'zbek milliy qadriyatlarining shakllanishida urf-odat, an'analar hamda ma'naviy merosning tutgan o'rni xususida ma'lumotlar bildirilgan. Bundan tashqari milliylik timsollarining zamonaviylik omillari bilan birgalikda tadrijiy rivojlanish bosqichini bosib o'tganligi haqida tahliliy yondashuvlar xususida atroflicha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: milliylik, qadriyat, madaniy hayot, urf-odat, an'ana, zamonaviylik

СОВМЕСТИМОСТЬ И ГАРМОНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ СО ВРЕМЕНЕМ

Азиза Назиркулова Абдувалиевна

Государственное искусство и культура Ўзбекистана

Специальность «Менеджмент культуры и искусства»

аспирант 1 ступени

Научный руководитель: С.Икрамов

Заведующий кафедрой «Менеджмент культуры и искусства», доцент

Аннотация: В данной статье даны подробные суждения о современности национальных ценностей и их гармонии. Также дается информация о роли обычаяв, традиций и духовного наследия в формировании узбекских национальных ценностей. Кроме того, в аналитических подходах подробно описано, что символы народности прошли стадию постепенного развития вместе с факторами современности.

Ключевые слова: национальность, ценность, культурная жизнь, обычай, традиция, современность.

COMPATIBILITY AND HARMONY OF NATIONAL VALUES WITH THE TIMES

Aziza Nazirkulova Abduvaliyevna

State art and culture of Uzbekistan
"Management of Culture and Art" specialty

1st stage graduate student

Scientific leader: S. Ikramov

Head of the Department of "Management of Culture and Art",
Associate Professor

Abstract: In this article, detailed opinions are given about the modernity of national values and their harmony. Also, information is given about the role of customs, traditions and spiritual heritage in the formation of Uzbek national values. In addition, it has been described in detail in the analytical approaches that the symbols of nationality have passed the stage of gradual development together with the factors of modernity.

Key words: nationality, value, cultural life, custom, tradition, modernity

Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli sohalarda qo'llaniladi. Qadriyat tushunchasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. Qadriyatlar – inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan vogelikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. U jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsuli. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosи o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda konkret tarixiy shart-

sharoitlarni doimo nazarda tutish kerak.[1;98]

Inson qadri, uning sha’ni, or-nomusi, milliy g‘ururi, albatta, milliy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq. Milliy qadriyatlar – har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘sha millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o‘ziga xoslik, o‘ziga moslik millat madaniyatida, adabiyotida, san’atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm-rusumlarida, bayramu-sayillarida o‘z ifodasini topadi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy qadriyatlar – milliy ma’naviy madaniyat ifodasi bo‘lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo‘shgan munosib hissasining hosilasidir.[2;67]

Ma’lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi. Yurtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda 136 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda.[3;56] Ular umumiyligi – jonajon O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo‘shmoqda. Bag‘rikenglik insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Qadriyatlar deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha. Milliy-ma'naviy qadriyatlar - "milliylik" "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi.[4;45] Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xattiharakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil bo'lishi mumkin.

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiat, boy tarixi, mehnatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzandlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega. Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishta yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliyl tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor Millatchilik va shovinizmning halokatli g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Milliy istiqlol royasining amal qilishiga, kishilar qalbi va ongiga singdirilishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy asosda, xolisona hal qilinmoqda.

Ulug' bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy ham «Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak», degan fikrni bejiz aytmagan.[5;23] Bashariyat tushunchasi rangorang millatlar va elatlar, shuningdek turli din va irqqa mansub insonlarni o'ziga qamrab oladi. Demak har bir inson bashariyat va ayni vaqtida o'z xalqi, o'z Vatanining farzandi hamdir. Har bir kishida o'z xalqining tili, ruhiyati, an'analari, qadriyatlari barq urib turadi. E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayatga, fuqarolarning milliy histuygulariga daxldor muhym ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

O'zbekiston hozir va bundan keyin ham o'z mustaqilligini himoya qila olishi uchun ko'p millatli o'zbekistonliklarning har bir avlodni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalab borishi barqarorlik va umummilliylotuvlik va bag'riketlikni yanada mustaxdsamlab boradi. Zero, milliy g'oya - barcha o'zbekistonliklarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oyadir. Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda.[6;21]

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi hislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir.[7;12]

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgayta harakatlarga sabab bo'lmoqda.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini kelgusida yangi bosqichga ko'tarish uchun hurmatli prezidentimiz oldimizga quyidagi maqsadlarni qo'yemoqda:

- jamiyatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldidagi tengligini ta'minlashga qaratilgan tizimli va izchil faoliyatni samarali tashkil etish;
- millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi jarayonlar rivojining muttasil monitoringini yo'lga qo'yish;
- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish;
- yetakchi mahalliy va xorijiy olimlar, ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida o'tkazilayotgan millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, anjumanlar, seminarlar, davra suhbatlari, ma'ruzalar va boshqa tadbirlarning samarasini oshirish;
- millatlararo munosabatlar sohasidagi muammolarni o'rganish va ularni hal etishda xorijiy tajribani tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida ana shu tajribadan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- millatlararo totuvlikni mustahkamlash, unga xavf soladigan turli muammolarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish, shuningdek, mazkur sohadagi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha ta'sirchan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- jamiyatda ko'pmillatli katta oila his-tuyg'usini, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligi ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqmiz bilan birga quramiz. To'shkwt O'zbekiston 2017
2. Abdurauf Fitrat. Oila yokki boshqarish tartiblari - T.: Cho'lpon, 2013. - bet 6. (Abdurauf Fitrat. Family or management procedures - T.: Cholpon, 2013. page 6)
3. А.С.Ачилдиев. Диалектика национального самосознания и национальной культуры - Т.: 1997. - стр. 49. (A.S.Achilidiyev. Dialectic national identity and national culture - T.: 1997. - page 49.)
4. D.A. Yusubov. Falsafa (etika, estetika, mantiq) - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. - bet 154. (D.A. Yusubov. Philosophy (ethics, aesthetics, logic) - T.: Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan, 2017. -page 154.)
5. D.A. Yusubov, X.B. Saitxodjayev, A.A. Mavlyanov. Falsafa. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012. - bet 240. (D.A. Yusubov, X.B. Saitxodjayev, A.A. Mavlyanov. Philosophy - T.: Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan, 2012. - page 240)
6. Falsafa: Qomusiy lug'at - T.: Sharq, 2004. - bet 476. (Philosophy: Encyclopedic dictionary - T.: East, 2004. - page 476.)
7. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati - T.: Akademiya, 2007. - betlar 184, 220, 222. (National ideology: advocacy technologies and glossary of terms - T.: Academy, 2007. - pages 184, 220, 222)
8. Nazarov Qiyomiddin. G'oyalarn falsafasi - T.: Akademiya, 2011. - betlar 95, 110-112. (Nazarov Qiyomiddin. Philosophy of ideas - T.: Academy, 2011. - pages 95, 110-112)